

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MURAKKAB TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH
TARTIBI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11624305>

Farg'ona davlat universiteti talabasi
Xojimamatova Hilolaxon Umidjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda murakkab tenglamalar va ularni yechish tartibi, Tenglama tuzib masalalar yechishni o'rgatish metodikasi Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir sodda masalalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tenglama, matematika, ko'paytirish, sodda masalalar, mantiqiy, yechishga $27 + x = 27$, namuna, tekshirish.

СЛОЖНЫЕ УРАВНЕНИЯ И ПОРЯДОК ИХ РЕШЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: данная статья посвящена решению сложных уравнений и порядку их решения в начальных классах, методике обучения решению задач составлением уравнений учебник по математике предполагает обучение учащихся решению некоторых различных задач составлением уравнений. Важной задачей является обучение решению простых задач нахождение неизвестных чисел операций сложения, вычитания, умножения и деления с составлением уравнений и закрепление знаний учащихся путем решения текстовых задач с помощью уравнений в сочетании с примерами.

Ключевые слова: уравнение, математика, умножение, простые задачи, логика, решение $27 + x = 27$, пример, проверка.

**COMPLEX EQUATIONS AND THE ORDER OF THEIR SOLUTION IN ELEMENTARY
GRADES**

Abstract: this article is devoted to solving complex equations and the order of their solution in elementary grades, the methodology of teaching problem solving by composing equations the mathematics textbook involves teaching students to solve some different problems by composing equations. An important task is to teach students how to solve simple problems of finding unknown numbers of addition, subtraction, multiplication and

division operations with the creation of equations and consolidate students' knowledge by solving text problems using equations in combination with examples.

Keywords: *equation, mathematics, multiplication, simple problems, logic, solution $27 + x = 27$, example, verification,*

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, Xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgandek har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin.

Davlat ta'lim standartlarining aniq o'quv fani bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha ishlab chiqilish o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va uquvlarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi.

Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (aspekti) (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi lozim.

Boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan, bilimlar boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Englama tuzib masalalar yechishni o'rgatish metodikasi Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir soddalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga zamin yaratib, o'quvchilarni fikrlash dunyoqarashini kengaytirib, ularni

zahnini va hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash bosh maqsaddir. Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatishni nazarda tutadi.

$27+x = 27$ ko'inishidagi tenglamani yechish usullari

x (iks) harfi bilan topilishi kerak bo'lgan noma'lum son belgilanadi.

$27 + x = 27$ — bu tenglama.

Tenglama quyidagicha yechiladi: tenglik to'g'ri bo'lishi uchun x ning o'rniga qanday sonni qo'yish kerakligini bilib olish kerak. Bu son 0, chunki 27 ga 0 ni qo'shganda 27 hosil bo'ladi. Shunda tenglik to'g'ri bo'lganini bilish mumkin.

Tenglamaning yechilishi bunday yoziladi:

$$27 + x = 27$$

Tekshirish:

$$x = 27 - 27$$

$$27 + 0 = 27$$

$$x = 0$$

$$27 = 27$$

Tenglamaning yechiishini quidagicha

$$69 - x = 23$$

$$69 - x = 23$$

Tekshirish:

$$x = 69 - 23$$

$$69 - 46 = 23$$

$$x = 46$$

$$23 = 23$$

Ayiriluvchi noma'lum bo'lsa, kamayuv chidan ayir mani ayirish kerak.

Namuna:

$$57 - x = 17$$

Tekshirish:

$$x = 57 - 17$$

$$57 - 40 = 17$$

$$x = 40$$

$$17 = 17$$

Tenglamani bu usulda yerchishda o'qituvchilar murakkab tenglamalarni yechishga o'rgatishda ishni nimadan boshlashni o'rganib olishadi hamda tenglamalarni yechishdan maqsad nima ekanligini o'zlariga aniqbelgilab olishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2017 yil., 160 bet
2. Abduraxmonova N., O'rinboyeva L. 2-sinf matematika darsligi. Toshkent," Yangiyo'l Poligraf Servis", 2018 yil,208 bet. "Экономикаи социум" No8(87) 2021 www.iupr.ru
3. Burxonov S. Va boshqalar. 3-sinf matematika darsligi. Toshkent, "Sharq" 2015.
4. Bikboeva.N.U.4-sinf matematika darsligi.Toshkent."O`qituvchi" 2017 yil.
5. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang`ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi O`quv qo`llanma. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2013 yil.
6. Jumayev E.E, Boshlang`ich matematika na`zariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. " Turon-iqbol," 2012 yil.
- 7 .Jumayev M.E , Tadjiyeva Z «Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi» Toshkent:Fan va texnologiya, 2005, 312 bet
- 8 .X.Nazarov, G.Eshqobilova . Matematika o`qitish metodikasi.SamDu .2022y.
- 9 .Matematika umumiy o`rta ta`lim maktablari 3-sinflari uchun darslik.